



## **MUSIQA FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATION TECHNOLOGYALARDAN FOYDALANISH**

**Muallif:** Omonov Xasanxon Sulaymonovich<sup>1</sup>, Yakubova Govhar Islomqul qizi<sup>2</sup>

**Affiliatsiya:** dotsent – Jizzax DPU<sup>1</sup>, 1-kurs magistranti – Jizzax DPU<sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14408528>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada modulli texnologiyalar mustaqil faoliyat asosida talabalarda bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, ularda rejalashtirish, o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'zlashtirish bo'yicha samarali natijani ta'minlashga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biri bo'lib qolmoqda. Modul bu shunday maqsadgacha yo'naltirilgan bog'lamki, u o'zida o'rganiladigan mazmunni va uni o'zlashtirish texnologiyasini aks ettiradi.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, Modul, Baloniya, Yevropa, Pedagogika, Didaktika, Kommunikativ, Kompitetlik, Talaba.

1999 yil 19 iyunda Yevropaning 29 davlatining ta'lrim tizimi vazirlari tomonidan Boloniya deklaratsiyasi imzolandi va 2010 yilga qadar Yevropaning barcha davlatlari ana shu tizimga kirishi nazarda tutilgan. Yevropa talabalarikengashi (11 million talaba 37 davlatdan) 2001 yil Balloniya jarayonini qo'llashga qaratilgan harakat faoliyatiini o'z zimmasiga oldi va 2 yil davomida talabalarning fikrlarini o'rganadi. Albatta qarama-qarshi fikrlar ko'p bo'lgan. Ijobiy jihatlari va kamchiliklar aniqlangan. 2005 yil ushbu jarayonni tanqidiy o'rganishga kiritilishgan va —Chernaya Kniga Bolonskogo prosessa deganma'lumotnomani taqdim etildi. Unda kredit tizimini samarasiga va magistraturada o'qish uchun katta mablag' talab etilayotgani, talabalarga yetarli darajada erkinlik berilmayotganligi va haddan tashqari mehnat bozoriga spesializatsiya qilinayotganligi haqida yozilgan.

Ijobiy jihatlari:

1. Baloniya jarayoniga qo'shilish talabalar va pedagoglarning mobul harakatini ta'minlaydi. Talablar bilan almashish kengayadi.

2. Ish bilan ta'minlanish darajasi kengayadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ni bir necha turga bo'lish mumkin:

1. Muammoli ta'lim texnologiyalari.

2. Didaktik- o'yinlarga asoslangan texnologiyalar.

3. Hamkorlik texnologiyalari.

4. Modulli texnologiyalar.

Modulli texnologiyalar- eng zamonaviy texnologiya bo'lib, modul bloklaridan tashkil topgan axborotni tizimli ravishda qayta ishslash va tahlil qilishga, talabaning

mustaqil faoliyatiga asoslangan, B.K.M. diagnostikasida turli shakllaridan foydalangan holda tashkil etiluvchi yaxlit jarayon.

Modul - mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo'lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat bo'lganbirlikdir.

Moduldastur- bir fan doirasidagi modul bloklarining yig'indisi bo'lib, erishish lozim bo'lgan didaktik maqsad, qo'laniqidigan usullar va vositalar yigindisidir.

O'quv moduli – nisbatan mustaqil, mantiqiy yakunga ega bo'lgan o'quv kursining bo'lagidir. U o'quv metodik ta'minotdan nazariy va amaliyqismlardan, topshiriq va joriy hamda yakuniy nazorat kabi qismlardan iborat.

Modulli texnologiyalar mustaqil faoliyat asosida talabalarda bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, ularda rejalashtirish, o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'zlashtirish bo'yicha samarali natijani ta'minlashga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biri bo'lib qolmoqda. Modul bu shunday maqsadga yo'naltirilgan bog'lamki, u o'zida o'rganiladigan mazmunni va uni o'zlashtirish texnologiyasini aks ettiradi.

Bugungi kunda talaba shaxsini barcha imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun albattata'lim shaxsga yo'naltirilganxarakterda bo'lishi talab etiladi. Buning uchun ta'limni tashkil etish jarayonida talabaning qobiliyatları, extiyojlari va o'ziga xos jihatlarini xisobga olish lozim. Ana shu elementlar hisobga olingan taqdirda o'z-o'zidan tabaqlashtirilgan, rivojlantiruvchi, o'qishga bo'lgan motivlarnikuchaytiruvchisubyekt-subyekti konsepsiyasiga asoslangan ta'lim tizimi kelib chiqadi.

An'anaviy ta'lim tizimida chuqur o'rnatishib qolgan pedagogik paradigmalardan biri busubyekt-obyekt munosabatlardir. Bu yondashuv nemis pedagogil.F.Gerbard tomonidan(1776-1841yillar) kiritilgan. Bundy yndashuvda pedagog sub'yekt rolini bajaradi va qanday o'qitish, qanday talabalarni ishlab chiqish, talabalar jamoasini qay yo'nalishda rivojlantirishni faqat o'zyondashuvi asosida hal etadi.

Talabalar esa passiv holda ob'yekt rolini bajaradi. Talabalarning asosiy faoliyati eslab qolish, tushinish, qo'llashga o'rganish hisoblanadi. Bu paragdimaga qarshi g'oyani amerikalik pedagog D.Dyui ishlab(1859-1952 ) chiqadi.Uning fikricha nimani va qanday o'qish lozim degan savollarga javob topishda talabaga ham erkinlik berish va uning hoxishlarini xisobga olish lozim. Toki talaba o'z faoliyatini, o'z taqdirini, o'z hayotini mustaqil boshqarishga faol kirishsin. Bu konsepsiya - subyekt-subyekti munosabatlari sifatida tan olindi va ko'pgina rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidao'z o'rniga ega.

Aytish joizki, ta'lim tarixida yigilgan boy didaktik tajribaning ijobiylarini o'z aksini modulli ta'limda topdi.

-Modulli ta'lim tushunchasi 1971 yillarda Dj.Rassel tomonidankiritildi. Rassel modulni o'quv paketi sifatida talqin etadi va unga o'quv materialining konseptual birligini o'rganishga oid harakatlarnikiritadi.

B.M.Goldshmid – modulni talabaga ma'lum ko'zlangannatijaga yetishga yordam beruvchi mustaqil birlik sifatida talqin etadi (1972 y).

G.Ouyens modulni yopiq kompleks sifatida talqin etadi va bu kompleksga o'qituvchi, talaba, o'rganiladigan axborot materiali, vositalarni kiritadi.(1975 y).

Zamonaviy tadqiqotchildardan biri P.A.Yusyavichene modulni ma'lum darajadagi mustaqil axborotdan hamda maqsadli ravishdagi metodik boshqaruv asosida maqsad qilib qo'yilgan natijalarni ta'minlashga qaratilgan birlik sifatida tahlil etadi.

N.V. Borisova, V.M. K.Ya. Vazina, Gareyev, Ye.M. Durko, V.V. Karpov, M.N. Katxanov, S.I. Kulikov, P. Yusyavicheneva boshqa olimlarning fikrlarini o'rganish natijasida quyidagikorinishlardagi modullarni ajaratishmumkin:

- mustaqil konseptualkichik birlik;
- modulmustaqil birlik sifatida bir o'quv kursini o'z ichiga olib, bir necha bloklarni o'zida mujassam etadi;
- modul ma'lum mutaxassislikka tegishli bo'lgan bir qancha o'quv predmetlarnio'zida mujassamlashtiruvchifanlararo birlik bo'la oladi;
- aniq bir mutaxassislikni egallashga yo'naltirilgan kasbiy ta'lim moduli.

Bundan tashqari-modull tushunchasiga tegishli bo'lgan bir qancha Xususiyatlarni ajaratish mumkin:

- Maqsad;
- Turli xil turdag'i o'quv faoliyatini integrasiyasi;
- Metodik ta'minot;
- Mustaqil rivojlanish;
- Ta'lim jarayonidagi talabaning mustaqilligi;
- O'quv axborotini tahlil qilish va strukturalashtirish ko'nikmasi;
- Nazorat va o'z-o'zini nazorat;
- Talabaning ta'lim olishdagi shaxsiy trayektoriyasi.

Modulbir necha bloklardan iborat bo'llishi mumkin:

1.Blok. Kirish nazorati- yangi mavzuni o'rganish uchun mavjud bazaviy va qoldiq bilimlarni tekshirishga qaratilgan.

2.Blok. Nazariy blok. Mavzuning har bir mantiqiy bo'lagi uchun tuzilgan axborot va ko'rgazmali materiallardan iborat (Axborot rasm, diagramma, sxemalarda to'liq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq).

3.Blok. Nazariy axborotni har bir bo'lagini talabalar bilan birlgilikda tahlil etishga qaratilgan.

4.Blok.Amaliy blok. Nazariy bilimlar asosida talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etish.

5.Blok. Chuqurlashib boruvchi blok. Mavzuga oid soha bo'yicha murakkab topshiriqlarni bajarish.

6.Blok. Nazorat bloki. Bajarilgan topshiriqlarni nazorat qilish.

7.Blok. Nazorat natijalarini tahlil etish. Umumiyo'l qo'yilgan hatoliklarni aniqlash va tahlil qilish.

8.Blok.Chiqish nazorati. Mavzu bo'yicha belgilangan topshiriqlarni bajarish va topshirish.

Modulli yondashuvtamoyillari:

- Modullilik
- Mazmunni strukturalashtirish
- Dinamik harakatni ta'minlash (soddadan-msurakkabga) □ Faoliyatilik
- Moslashuvchanlik (gibkost)
- Natijalarni oldindan aniqlash
- Maslahatlarning turli-tumanligini ta'minlash.

Modul turlari:

-Nazariy modullar (Nazariy bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).

-Amaliy modullar (Amaliy ko\_nikmalarni va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).

-Texnologik yoki aralash modullar (nazariy bilim, amaliy kunikma va malakalarni shakllantirishga yo\_naltirilgan modullar).

Modulning tarkibiy qismlari.

Modul dastur kompleks didaktik maqsaddan (KDM) va bu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi modul bloklari yig'indisidan iborat.

Modul dasturini ishlab chiqish uchun asosiy g'oyalarniajaratib olish va blok-modullarda strukturalashtirish, so'ngra kompleks didaktik maqsadlarnishakllantirish talab etiladi. Kompleks didaktik maqsadlar modul-bloklarining maqsadlariga, ya'ni integrativ didaktik maqsadlarga (IDM) va xususiy didaktik maqsadlarga (XDM) bo\_linadi, uni esa o'z navbatida o'quv elementlaritashkil etadi.

Modul dasturlarning maqsadialbattamalakali mutaxassisni yetishtirishga xizmat qiladi. Modul dasturning maqsadini tuzishda ana shu mutaxassisga qanday talabalar tizimi qo'yilayotgan ekanini aniqlab olishdan boshlanadi. Bugungi kunda Rossiya dasturlarning maqsadini tuzishda ana shu mutaxassisga qanday talabalar tizimi o'rganilib ularni uch asosiy guruhga ajratilmoxda. Mutaxassisni komponentligini aniqlovchi kriteriyalarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish mumkin

Instrumental komponentsiyalar:

- analiz va sintez qobiliyatiga ega bo'lish;
- rejalashtirishva tashkil etish qobiliyat;
- umuiy bazaviy bilimlarga ega ekanligi;
- mutaxassislik bo'yicha bazaviy bilimlarni egallaganligi;
- ona tilida bemalolmuloqatga kirisha olish;
- axborot texnologiyalaridan foydalan olish malakalari;
- axborotmaterialibidan ishlash qobiliyat;
- muammolarni yechish qobiliyat;

Qarorlar qabul qilish qobiliyat.

Komunikativ komponententlik:

- tanqid va o'z-o'zini tanqid qila olish;
- gruhda faoliyat ko\_rsataolish; -o'zaro muloqatga kirisha olish;
- axloqiy qadriyatlarni tan olish;
- turli xalqlar madaniyatiga xurmat bilan qarash;
- boshqa yo'nalishda faoliyat yurituvchi ekspertlar bilan munosabatga kirisha olish.

Tizimli komponententlik:

- bilimlarini amalda tizimli ravishda qo'llay olish;
- tadqiqot olib borish;
- yangi sharoitga moslashish;
- ijod qilish;
- liderlik qobiliyatini o'stirib borish;
- individual holda faoliyat yuritish qobiliyat;
- loyihalarni ishlab chiqish va ularni boshqarish;
- tadbirkorlik va yangig'oyalarni ilgari surish;

- masuliyatlilik;
- muvaffaqiyatga erishish motivining rivojlanganligi .

Tanlangan mutaxassislik bo'yicha umumiylididaktik maqsadlartasdiqlangan standartdao'z aksini topgan. Modul dasturini ishlab chiqishda ana shu standart talablariga asoslaniladi.

Modullarni ishlab chiqishda uchta asosiykomponentga e'tibor qaratish lozim:

1. Modul spesifikasiyasi.
2. Modulning nazorat blokini ishlab chiqish.
3. Modulning o'quv materialini ishlab chiqish.

1.Modul spesifikasiyasi-ana shu modul haqida to'liq ma'lumotni o'zida aksettiradi.Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

1.1.Modulning nomi. Modullarning nomlari mazmunga mos bo'lishi va qaytarilishlarga yo'l qo'ymaslik lozim.

1.2.O'qitishning maqsadi. Mana shu modulni o'zlashtirish natijasida qanday faoliyat yuritish imkonini tug'ilishi, kasbiy tayyorgalikdagi axamiyati yoritib berilishi lozim. Talabaningrejali taraqqiyoti aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

1.3.O'qitish natijalari. Modulni o'rganish natijasida qanday bilimlarni egallashi, qanady ko'nikma va malakalar shakllantirilishi sanab o'tiladi. O'zlashtirish jarayoni tugagandan so'ng talabaqanday faoliyatni qanday sharoitlardabajara olishi ko'rsatiladi. Natijalaruzviy birlikka ega bo'lib,o'qitish maqsadlaridan chetga chiqmagan holda shakllantirilishi lozim. Natijalarni tekshirish jarayonida bir necha ko'nikmalarni egallanishinazarda tutilishi lozim. Odatta bir modul 3-5 turdag'i ko'nikmani egallahsha qaratilgan bo\_lib, uni egallanganligi maqsadga erishilganlik darajasini ko'rsatadi. Erishiladigan natijalaraniqlashtirilgan maqsadlarni shakllantirish qoidalari asosida shakllantiriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Azizzodjayeva N.N Pedagogik texnologiyalarva pedagogik mahorat.-T.: Moliya2003.-192b

Aripov M Internet va elektron pochta asoslari.-T.:Iqtisod moliya,2000.-218b.

Ермолаев Е.И. Модульные обучение в вузе: Его основные учебные элементы. Пензинский университет.2010.-75c

Ishmukhamedov R. Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.: TDPU. 2005y.